

**AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI XUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/01.04.2023.Tib.160.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

YULDASHEV MARUFDJON ABIDOVICH

**SIL INFEKTSIYASINING YORDAMCHI REPRODUKTIV
TEXNOLOGIYALAR NATIJASIGA TA’SIRI VA USHBU BEMORLARNI
OLIB BORISHNI DASTURIY MENEDJMENTINI ISHLAB CHIQISH**

**14.00.26 – Ftiziatriya
14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии медицинских наук (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of phylosophy of medicine (PhD)

Yuldashev Marufdjon Abidovich

Sil infertsiyasining yordamchi reproduktiv texnologiyalar natijasiga ta'siri va ushbu bemorlarni olib borishni dasturiy menedjmentini ishlab chiqish..... 3

Юлдашев Маруфджон Абидович

Влияние туберкулезной инфекции на исходы вспомогательных репродуктивных технологий и разработка программного менеджмента ведения пациенток 27

Yuldashev Marufdjon Abidovich

The impact of tuberculosis infection on the outcomes of assisted reproductive technologies and the development of a management program for patient care..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 60

**AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI XUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/01.04.2023.Tib.160.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**AKADEMIK SH. ALIMOV NOMIDAGI RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

YULDASHEV MARUFDJON ABIDOVICH

**SIL INFEKTSIYASINING YORDAMCHI REPRODUKTIV
TEXNOLOGIYALAR NATIJASIGA TA'SIRI VA USHBU BEMORLARNI
OLIB BORISHNI DASTURIY MENEDJMENTINI ISHLAB CHIQISH**

**14.00.26 – Ftiziatriya
14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida ro'yxatga olingan raqami B2024.1.PhD/Tib4331.

Dissertatsiya Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengashning internet sahifasida (www.tipme.uz) va axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan «ZiyoNet» (www.ziyounet.uz).

Ilmiy rahbarlar:

Parpieva Nargiza Nusratovna
tibbiyot fanlari doktori

Zufarova Shaxnoza Alimdjanovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Fayzullaeva Dilfuza Bahodirovna
tibbiyot fanlari doktori

Lokshin Vyacheslav Notanovich
tibbiyot fanlari doktori, professor, akademik
(Qozog'iston Respublikasi)

Etakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi "_____" _____2024 yil _____ soat
DSc.04/01.04.2023.Tib.160.01 sonli ilmiy kengash yig'ilishida Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100086, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Majlisiy ko'chasi, 1-bino), Tel/faks: +998 71-278-04-70, +998 71 278-15-28; e-mail: tbcenter.uz@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Akademik Sh. Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kutubxonasida tanishish mumkin (ro'yxatdan o'tgan_____). Manzil: 100086, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Majlisiy ko'chasi, 1-uy), tel / faks: +998 71-278-04-70.

Dissertatsiya avtoreferati yuborildi "_____" _____2024 yil.
(_____2024 yil)

A. S. Sodiqov

Ilmiy darajalar berish bo'yicha Bir martalik Ilmiy
Kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

E. A. Abdug'aniyeva

Ilmiy darajalar berish Bir martalik Ilmiy Kengashining
ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

C. N. Sultonov

Ilmiy darajalar berish bo'yicha Bir martalik Ilmiy
Kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasining annotatsiyasi (PhD))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra «... 2022-yilda butun dunyo bo'ylab 10,6 million kishi sil kasalligiga chalingan, bu 2021-yilda 10,3 million va 2020-yilda 10,0 milliondan oshgan»¹. Bu esa dunyodagi xar uch kishidan biri sil infeksiyasi bilan infitsirlanganligi, ya'ni 2 milliardga yaqin odam sil kasalligiga chalinganligidan dalolat beradi. Fertil yoshdagi ayollar orasida sil kasalligi tarqalishining oshib borayotganligi alohida e'tiborga loyiqdir, ularning ulushi barcha bemorlar orasida 31% ga etadi. Ayollar jinsiy a'zolari sili aksariyat holatlarda ayollarda gormonal gomeostazning buzilishi va turg'un bepushtlikka olib keluvchi sabablar hisoblanib, ushbu ayollarda yordamchi reproduktiv texnologiyalar qo'llanilganda ularning natijalariga salbiy ta'siri muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda genital sil bilan kasallangan fertil yoshdagi ayollarning diagnostikasi, erta aniqlash va davolash taktikasiga yondoshuvning yuqori samaradorligiga erishishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bepushtlikni davolashdagi zamonaviy, hamda samarali davolash usullaridan bo'lgan yordamchi reproduktiv texnologiyalarni (YoRT) qo'llash, ushbu kasallik tufayli yuzaga kelgan bepushtlik etiologiyasi sifatida uni barvaqt aniqlash, YoRT muvaffaqiyatsiz yakunlanish holatlarini oldini olish, takroriy samarasiz kechadigan YoRT muolajalarni kamaytirish, sil kasalligi tufayli endometriyadagi morfofunktsional o'zgarishlar, embrion implatatsiyasini amalga oshamasligi sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu borada sil infeksiyasining yordamchi reproduktiv texnologiyalar natijalariga ta'sirini o'rganish va ushbu bemorlarni boshqarish, EKV amaliyoti o'tkazish uchun tayorlash va uni olib borish uchun dasturiy menedjmentini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olishga ustuvor ahamiyat berilmoqda, Bu borada "...aholiga tibbiy yordam sifati, ulardan foydalanish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kasalliklarning barvaqt oldini olish, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish va tibbiy yordam ko'rsatishning yuqori texnologiyali modellarini yaratish..." bo'yicha vazifalar belgilandi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish bepushtlik muammolari bo'yicha mutaxassislar orasidagi sil infeksiyasining bepushtlikning asosiy sababi sifatida e'tiborga olinishi, ushbu kasallikni surunkali yalliglanish bilan kechuvchi kasalliklar orasida gumon qilinishiga, jinsiy a'zolar silini boshqa «nospetsifik» kasalliklar niqobi ostida yashirin kechishini inobatga olib, uni erta aniqlanishiga, bepushtlikni davolashda qo'llanilgan zamonaviy usullar yordamida samarali davolashni tashkil qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi PF- 6110-son «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi

¹ WHO Global Report. 2023

mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 noyabrdagi PQ-4513-sonli «Reproduktiv yoshdagi ayollar, homilador ayollar va bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish va qamrovini yanada kengaytirish to'g'risida»², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son «Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022-yil 25-apreldagi PQ-215-son «Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi farmon va qarorlarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga tubdan yangi mexanizmlarni joriy etish va tizimda amalga oshirilayotgan mexanizmlarning samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan muhim vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda yuqumli kasalliklarning global muammolaridan biri sil kasalligi bo'lib qolmoqda, bu 25-44 yoshdagi ayollar orasida keng tarqalgan. Jahon statistikasiga ko'ra, dunyoda har yili 800 000 ta yangi o'pkadan tashqari lokalizatsiyali sil kasalligi qayd etiladi va shuni ta'kidlash kerakki, bu kasallik ko'pincha davolanish samarasi bo'lmagan bosqichda qayd etiladi va ko'plab asoratlar bilan birga keladi (Sharma J. et al., 2016). Evropa mamlakatlarida urogenital sil kasalligi hozirgi vaqtda o'pkadan tashqari sil kasalligining barcha shakllari orasida ikkinchi o'rinni egallab, 27,2% tashkil etadi (Di Giovanni S.E. et al., 2016).

Genital sil yoshlik vaqtida namoyon bo'lib, tuxumdon kistalari, ektopik homiladorlik, bepustlik, bachadondan qon ketish va tuxumdon disfunktsiyasi kabi holatlarda yashirin kechishi mumkin (Sachan R. et al. 2012, Bekele D., 2014). Boshqa kasalliklar niqobi ostida kechishi tufayli, genital sil kasalligi o'ziga xos xususiyatlari tufayli, kasallikni ancha rivojlangan bosqichlarda tashxis qilinadi, yoki umuman tashxis qo'yilmaydi (Shirazi M., Shahbazi F. et al. 2015). Rossiyalik mualliflarning fikriga ko'ra, bemorlarning 25-35,9% da genital sil kasalligi boshlanganidan 10-15 yil o'tgach aniqlanadi, asosan 10-25% hollarda jarrohlik paytida tasodifiy topilmalar sifatida aniqlanadi, bu esa reproduktiv funktsiyaga salbiy ta'sir qiladi (Kayukova S.I., 2012; Nigmatulina G.T., 2012; Ergeshov A.Э., 2018).

Sil kasalligi bilan og'rigan ayollarda, jarayonning lokalizatsiyasidan qat'iy nazar, gipotalamus-gipofiz-tuxumdon tizimida jiddiy buzilishlar, urogenital traktning shilliq pardalarining biotsenozidagi og'ishlar, tuxumdonlarning

¹ Узбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 12.11. 2020 йилдаги ПФ-6110-

² Узбекистон Республикаси Президентининг қарори ПК-4513-сон, ПК-5124-сон, ПК-215-сон қарорлари

funksional holatining buzilishi, hayz ko'rish funksiyasining turli xil buzilishlariga olib keladi (Shilova M.V., 2015; Urtenov R.X. i soavt., 2015). Ayol jinsiy a'zolarining faol sil kasalligi bo'lgan bemorlarning 33,5-62,8% da gipomenstural sindrom, algodismenoreya kabi holatlar kuzatiladi (Juchenko O.G. 2011, Ibraeva O.G. 2012). Tadqiqotlarga ko'ra sil kasalligi intoksikatsiyasi fonida gipotalamus-gipofiz-tuxumdon tizimidagi tsiklik jarayonlarning buzilishi tuxumdon zaxirasining pasayishi bilan tavsiflanadi, bu follikulani stimulyatciya qiluvchi gormon (FSG), lyuteinlashtiruvchi gormon (LG) tarkibining sezilarli darajada oshishi, antimyuller gormonning (AMG) sezilarli darajada pasayishi bilan tasdiqlanadi. Estradiol (E_2), progesteron (R_4) funksional giperprolaktinemiya fonida, klinik jihatdan surunkali anovulyatsiya va lyuteal fazaning etishmasligi bilan namoyon bo'ladi. Sharma J. B. ma'lumotlariga ko'ra, genital sil tuxumdonlarda qon oqimining buzilishi fonida tuxumdonlar zaxirasining pasayishiga olib kelishini aniqlagan.

Sil kasalligi 25-30% hollarda rivojlanib borishi bilan birga, bachadon shilliq qavati zararlanadi, granulomatoz yoki kazeoz endometrit hosil bo'lib, bachadon ichi yopishqoqlik (Asherman sindromi) hosil bo'ladi, bu esa bachadon bo'shlig'i va bachadon naychalarining to'liq yoki qisman obliteratsiyasiga olib keladi (Ximatova N.I., 2022). Sil endometritidan keyingi holatlarning 8,2% da bemorlarning asosiy shikoyati biriktiruvchi to'qima fibrinoz bitishmalar va bachadon ichi sinexiyalarning shakllanishi tufayli amenoreya yuzaga keladi (Xalilova M.U., Xikmatova N.I., 2021). Gipoestrogeniya fonida endometriyning surunkali o'ziga xos yallig'lanishi, trofikaning buzilishiga, endometriyning retseptivligini pasayishiga, endometriyning glandulyar tarkibiy qismining etarli darajada transformatsiyaga uchramasligiga, so'ngra 12,2% hollarda menorragiya va atsiklik qon ketish bilan namoyon bo'ladigan endometriyal giperplaziyaning turli darajadagi rivojlanishiga olib keladi (B.A. Sanoev., Xikmatova N. I., 2023).

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, ushbu tadqiqot sil infeksiyasining ekstrakorporal urug'lantirish (EKU) muolajalarining muvaffaqiyatsiz yakunlanishining asosiy sabablaridan biri sifatida ta'kidlab, reproduktiv funksiyalarning buzilish darajasi va chuqurligini aniqlaydi. Kasallik, oilada bepustlikni davolash samaradorligini bashorat qilish, shuningdek, bemorlarni boshqarish usullarini takomillashtirish, bu kabi qimmat tibbiy xizmat turi EKUni samaradorligini oshirish va aholining moliyaviy yukini kamaytirish imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan aloqasi. Dissertatsiya ishlari RI Fva P IATM ning ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi sil infeksiyasining yordamchi reproduktiv texnologiyalar natijalariga ta'sirini o'rganish va bemorlarni boshqarish uchun dasturiy boshqaruvini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ekstrakorporal urug'lantirishning muvaffaqiyatsiz natijalari orasida genital sil kasalligining uchrashi chastotasini o'rganish va ushbu patologiyani aniqlashning

eng maqbul usullarini aniqlash;

natijasi salbiy bo'lgan EKU o'tkazgan ayollarda genital sil kasalligining morfologik ko'rinishini aniqlash;

genital sil kasalligi bo'lgan bemorlarda steroid gormonlar holatini aniqlash;

takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan ayollarda genital sil kasalligini erta tashxislash usulini ishlab chiqish;

genital sil kasalligi bo'lgan bemorlarda yordamchi reproduktiv texnologiyalarni qo'llash doirasida erta aniqlash, davolash va tayyorlash menedjment dasturini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida 2017 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda «Mediofarm-EKU» klinikasida bepushtlik tashxisi bilan, anamnezida EKU natijalari muvaffaqiyatsiz yakunlangan 309 ayolning ambulator kartalari va bachadon naylari bilan bog'liq bo'lgan, ikki va undan ortiq bo'lgan samarasiz, takroriy EKU natijali 120 ta ayol olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida genital trakt ajralmalari: qin ajralmalari, bachadon bo'yni shilliq ajralmasi, hayz qoni, endometrial aspirat, bachadon bo'shlig'i yuvindisi, hamda endometriy biopsiyasi; venoz qon va qon plazmasi natijalari olingan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda umumiy klinik, instrumental-laborator, molekulyar genetik, immunoferment, gistologik, morfologik, rentgenologik va statistik tekshiruv usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda natijalarning diagnostik ahamiyati hayz davrining vaqti bilan belgilangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sil kasalligi 26,7% hollarda ayollarda patogenetik ta'sir doirasida EKUning takroriy muvaffaqiyatsiz natijalariga sabab bo'lishi isbotlangan;

EKUning muvaffaqiyatsiz natijalari qayd etilgan ayollarda sil tashxisini erta aniqlashda GeneXpert va PZR tekshiruvlari yuqori diagnostik sezgirligi va diagnostik axamiyatliroqligi isbotlangan;

sil infeksiyasi natijasida EKUning muvaffaqiyatsiz natijalari qayd etilgan ayollarda implantatsiya oynasini siljishida axamiyatli prediktorlar asoslangan;

takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan bemor ayollarda erta tashxislash, davolash usullari va «yo'ldosh terapiyasi» ning ishlab chiqilgan modellari asosida menedjment dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bachadon naylari bilan bog'liq bepushtlik va takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan ayollarda genital sil kasalligi xavfini bashorat qilishning regressiya modeli ishlab chiqilgan;

bachadon naylari bilan bog'liq bepushtlik va takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan ayollarda genital sil kasalligini tashxislash uchun kompleks yondashuv va dastur ishlab chiqilgan;

majburiy «paket» da taklif qilingan tekshiruvlar takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan ayollarda sil kasalligi infeksiyasini tashxislashning eng sezgir va yuqori ma'lumotli yondashuvlari aniqlangan;

genital sil kasalligi fonida bachadon naylari bilan bog'liq bepushtlik bo'lgan bemorlarni EKU dasturlariga tayyorlashda «yo'ldosh terapiyasi»ni davolash va

davolashning kompleks yondashuvi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar bilan qo'llab-quvvatlanadi, bu esa olingan ma'lumotlarni o'rganish ob'ekti, predmeti va maqsadiga moslashtirish, shuningdek, ularning vakili, umumlashtirilishi va shubhasizligini tasdiqlash imkonini beradi; yetarli miqdordagi bemorlarning uslubiy to'g'riligi, tadqiqotda klinik, gormonal, immunologik, instrumental va statistik usullar bilan to'ldirilgan ishlab chiqilgan anketalardan foydalanish, olingan natijalarni xalqaro va milliy tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslash va tegishli organlar tomonidan xulosalar va natijalarni tasdiqlash.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, sil kasalligi jarayoni oqibatida, fertil yoshdagi ayollarda xayz siklining gormonal regulyatsiyasining buzilishi, ovarial zaxirasining keskin kamayib ketishi va endometriy morfo-funktsional holatidagi o'zgarishlar natijasida reproduktiv funktsiyaning chuqur patogenetik buzilish mexanizmlari to'g'risida nazariy bilimlar kengayganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, genital sil kasalligi bilan og'rigan bemorlarni qayta-qayta muvaffaqiyatsiz EKV natijalari bilan davolash usullarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lib, bu reproduktiv kasalliklarni kompleks tashxislash, davolash va davolash dasturlariga asoslanadi. Genital sil kasalligi fonida bachadon naylari o'tkazuvchanligi buzilishi bilan bog'liq bepushtlik faktori bor bemorlarni EKV dasturlariga tayyorlashda «yo'ldosh terapiyasi», bu bemorlarning iqtisodiy jihatdan harajatlarining iqtisodiy yukini kamayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etish. Jinsiy a'zolari sili kasalligini YoRT ga ta'sirini o'rganish va olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

birinchi ilmiy yangilik: 26,7% hollarda ayollarda sil kasalligi infeksiyasi EKUning takroriy muvaffaqiyatsiz natijalariga sabab bo'lishi bo'yicha tavsiyalar 12.02.2024-yildagi 6/1-sonli RIFvaPIATMning ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi tomonidan tasdiqlangan «Anamnezida yordamchi reproduktiv texnologiyalarning takroriy muvaffaqiyatsiz natijalari bo'lgan ayollarda genital sil kasalligini erta tashxislash usuli» bo'yicha uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Toshkent viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazi faoliyatiga 30.10.2023 yildagi 83a-son buyruq bilan va «DOKTOR SHAHNOZAFAYZ» xususiy tibbiyot klinikasi faoliyatiga 31.10.2023 yildagi 23/1-son buyruq bilan (Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashining 2024 yil 26 avgustdagi 05/60-son xulosasi) amaliyotiga joriy etildi. **Ijtimoiy samardorligi:** bemorlardagi yashirin kechuvchi genital sil jaryonini erta aniqlash va barvaqt davolashni, takroriy samarasiz EKV jarayonini samardorligini oshirish imkonini beradi. **Iqtisodiy samardorligi:** anamnezida takroriy muvaffaqiyatsiz EKV natijalarga ega bo'lgan ayollarda, genital sil kasalligini tashxislashda har bir bemor uchun 7,7 million so'mni tejashga imkon berdi.

ikkinchi ilmiy yangilik: GeneXpert va PZR taxlillari sil kasalligini barvaqt tashxis qo'yish uchun diagnostik sezgirligi yuqori va o'ziga xos ekanligi isbotlanib, bu bo'yicha tavsiyalar 12.02.2024-yildagi 6/1-sonli RIFvaPIATMning ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi tomonidan tasdiqlangan «Anamnezda

yordamchi reproduktiv texnologiyalarning takroriy muvaffaqiyatsiz natijalari bo'lgan ayollarda genital sil kasalligini erta tashxislash usuli» bo'yicha uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Toshkent viloyat ftiziatrriya va pulmonologiya markazi faoliyatiga 30.10.2023 yildagi 83a-son buyruq bilan va «DOKTOR SHAHNOZA-FAYZ» xususiy tibbiyot klinikasi faoliyatiga 31.10.2023 yildagi 23/1-son buyruq bilan (Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashining 2024 yil 26 avgustdagi 05/60-son xulosasi) amaliyotiga joriy etildi. **Ijtimoiy samardorligi:** bemorlardagi yashirin kechuvchi genital sil jaryonini erta aniqlash va barvaqt davolashni, takroriy samarasiz EKU jarayonini samardorligini oshirish imkonini beradi. **Iqtisodiy samaradorligi:** anamnezida takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalarga ega bo'lgan ayollarda, genital sil kasalligini o'z vaqtida aniqlash bilan davolash xarajatlari 5 120 000 so'mni tashkil etadi va o'z vaqtida tashxis qo'yilmasa, bemor davolanishga 2,5 baravari (12 800 000 so'm) iqtisod qilinadi.

uchinchi ilmiy yangilik: sil infeksiyasi natijasida EKUning muvaffaqiyatsiz natijalari qayd etilgan ayollarda implantatsiya oynasini siljishida ahamiyatli prediktorlar aniqlanganligi bo'yicha tavsiyalar 12.02.2024-yildagi 6/1-sonli RIFvaPIATMning ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi tomonidan tasdiqlangan «Genital sil kasalligi bilan og'rikan bemorlar uchun yordamchi reproduktiv texnologiyalar dasturlarini boshqarish, davolash va tayyorlash algoritmi» bo'yicha uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Toshkent shahridagi 3-sonli tumanlararo ftiziatrriya dispanseri faoliyatiga 10.30. 2023, 77-sonli buyruq bilan va «ERAMED-EKU» xususiy tibbiyot klinikasi faoliyatiga 10.30.2023, 20-sonli buyruq bilan (Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashining 2024 yil 26 avgustdagi 05/60-son xulosasi) amaliyotiga joriy etildi. **Ijtimoiy samardorligi:** organizmdagi sil bilan bog'liq gormonal gomeostazni buzilishi, endometriydagi glandulyar tuzilmalarning shakllanishi va yetilishining kechikishi, implantatsiya oynasi kunining siljishini e'tiborga olgan holda olib borilgan EKU jarayoni samaradorligi keskin oshirish imkonini beradi. **Iqtisodiy samaradorligi:** kengaytirilgan yondashuv, EKU dasturlarida har bir bemor uchun 17 million so'mgacha tejashga imkon berdi, shu jumladan EKU dasturining narxi barcha tekshiruvlar kiritilgan holda o'rtacha 30 000 000 million so'mni tashkil etadi, takroriy EKU bilan esa bu miqdor 17 000 000 so'mga oshadi, ya'ni, bepustlik bilan og'rikan 1 bemorga iqtisodiy xarajatlar – 47 000 000 so'mga iqtisod qilinadi.

to'rtinchi ilmiy yangilik: takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan ayollarda davolash usullari va «yo'ldosh terapiyasi» ning ishlab chiqilgan modellari asosida menedjment dasturi - erta tashhislash usuli ishlab chiqilgan. Bu bo'yicha tavsiyalar 12.02.2024-yildagi 6/1-sonli RIFvaPIATMning ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi tomonidan tasdiqlangan «Genital sil kasalligi bilan og'rikan bemorlar uchun yordamchi reproduktiv texnologiyalar dasturlarini boshqarish, davolash va tayyorlash algoritmi» bo'yicha uslubiy tavsiyanoma mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Toshkent shahridagi 3-sonli tumanlararo ftiziatrriya dispanseri faoliyatiga 10.30. 2023, 77-sonli buyruq bilan va «ERAMED-EKU» xususiy tibbiyot klinikasi faoliyatiga 10.30.2023, 20-sonli

buyruq bilan (Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashining 2024 yil 26 avgustdagi 05/60-son xulosasi) amaliyotiga joriy etildi. **Ijtimoiy samardorligi:** EKU amaliyotiga kirishgan ayollar orasida yashirin sil kasalligini erta tashxislash, ulardagi gormonal gomeostazni tiklash, takroriy muvaffaqiyatsiz EKU lar sonini keskin kamaytirish imkonini beradi. **Iqtisodiy samaradorligi:** kengaytirilgan yondashuv, EKU dasturlarida har bir bemor uchun 17 million so'mgacha tejashga imkon berdi, shu jumladan EKU dasturining narxi barcha tekshiruvlar kiritilgan holda o'rtacha 30 000 000 million so'mni tashkil etadi, takroriy EKU bilan esa bu miqdor 17 000 000 so'mga oshadi, ya'ni, bepushtlik bilan og'rigan 1 bemorga iqtisodiy xarajatlar – 47 000 000 so'mga iqtisod qilinadi.

Jinsiy a'zolar sili sababli bepushtligi bo'lgan bemorlarni boshqarish uchun tavsiya etilgan algoritmdan foydalanish takroriy EKU amaliyotini 50,5% ga (4,7 baravar) pasayishiga olib keldi.

Tadqiqot natijalarini sinab ko'rish. Tadqiqotning natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining nashr etilishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 4 tasi O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, shu jumladan 2 ta maqola respublika jurnallarida va 2 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya 117 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbligi, talabgorligi va amaliy ahamiyati asoslantirilgan, maqsad va vazifalari, ob'yekti va tadqiqotlari shakllantirilgan. Dissertatsiya tadqiqotining O'zbekiston Respublikasida fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi, ularning ilmiy-amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslantirilgan, amaliyotga joriy etish, aprobatsiya to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan va tadqiqot natijalarining nashr etilishi, dissertatsiya tuzilishi to'g'risida.

Dissertatsiyaning birinchi bobida "**Jinsiy a'zolari sil kasalligi bo'lgan ayollarning reproduktiv funksiyasi holati (adabiyotlarni ko'rib chiqish)**" adabiyotlarning analitik sharhini taqdim etadi, unda ayollarda genital sil kasalligining epidemiologiyasi va tibbiy-ijtimoiy ahamiyati haqidagi zamonaviy g'oyalar tahlil qilinadi. Genital sil kasalligining bepusht ayollarda yordamchi reproduktiv texnologiyalar natijalariga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan.

«**Klinik materiallar va tadqiqot usullarining tavsifi**» dissertatsiyaning ikkinchi bobida tadqiqotning maqsadi doirasida tadqiqot muammolarini hal qilishni ta'minlaydigan uslubiy yondashuvlar va usullarni aks ettiruvchi tadqiqot dizayni keltirilgan. Dissertatsiya ishlari Toshkent shahridagi ftiziatriya va

pulmonologiya markazi hamda 2017-2023 yillarda "Mediofarm-EKU" xususiy klinikasi negizida amalga oshirildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida 309 ta muvaffaqiyatsiz EKU protokollari retrospektiv tahlil qilindi. Xavf omillarini aniqlash uchun bepushtlikning bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi bilan bog'liq bo'lgan 120 ayol tanlangan, ularning EKU natijalari ikki yoki undan ortiq muvaffaqiyatsiz bo'lgan.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida, ikki yoki undan ortiq muvaffaqiyatsiz EKU natijali bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi bilan bog'liq bo'lgan 120 ayol sil kasalligi infeksiyasi uchun tekshirildi. Tekshirilgan barcha ayollarning o'rtacha yoshi $31,2 \pm 3,5$ yoshni tashkil etdi.

Ishning uchinchi bosqichi genital sil kasalligi fonida bepushtlikning bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi bilan bog'liq shakli bo'lgan bemorlar uchun EKU dasturlarini boshqarish, davolash va tayyorlash algoritmini ishlab chiqish edi. Ushbu bosqichda 2 ta tadqiqot guruhi tuzildi: 1 – guruh (asosiy)-genital sil kasalligi tashxisi tasdiqlangan 32 ayol; 2 – guruh (taqqoslash) - genital sil kasalligi aniqlanmagan 88 ayol.

Tadqiqotga kiritilgan barcha bemorlar umumiy klinik, laboratoriya-instrumental, immun-genetik va immunferment, gistologik, morfologik tadqiqot usullari, radiatsiyaviy tasvirlash va statistik tahlil usullarini ishonchlilik darajasini baholash bilan o'tkazildi.

Genital sil kasalligini tashxisini qo'yishda quyidagilarga asoslangan edi:

klinik holati va unumdorligini baholashni o'z ichiga olgan ftiziatriya tarixini sinchkovlik bilan yig'ish: bolalik davridagi kasallik, oilaviy ftiziatriya tarixi yoki sil bilan kasallangan bemorlar bilan muloqot qilish haqidagi ma'lumotlarni baholash;

«Carl Zeiss» lyuminestsent binokulyar mikroskopi (Germaniya) yordamida biologik ajralmalarni mikroskopiya usuli bilan Tsil-Nilsen (yorug'lik mikroskopiya) va lyuminestsent bo'yoq (lyuminestsent mikroskopiya) yordamida tahlillarni bo'yash bilan o'rganish;

GeneXpert MTB/RIF genital silni aniqlash uchun molekulyar genetik testlar, nuklein kislotalarni kuchaytirishga asoslangan PZR, ham ijobiy, ham salbiy mikroskopiya natijasi bo'lgan namunalardan MBT kompleksining DNKsini aniqlashga imkon beradi. Usul bir vaqtning o'zida Rifampitsinga turg'unlik bilan bog'liq rpoB kodonidagi gen mutatsiyasining genetik variantlarini aniqlash imkonini beradi;

RoboT-GeneQ asbobi (QIAGEN GmbH, Germaniya) va Freedom EVO 150/4 avtomatlashtirilgan modulli analizator (Shveytsariya) yordamida real vaqtda polimeraza zanjiri reaksiyasi (PZR);

Imunodiagnostika usuli – Diaskin-testi. Organizmning Mycobacterium tuberculosisga o'ziga xos sezuvchanligini aniqlash va sil kasalligi jarayonining faolligini aniqlash uchun, O'zbekiston Respublikasi SSV ning 2014 yil 24 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida silga qarshi chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida» gi 383-son buyrug'iga muvofiq. Sinov natijalari 72 soatdan keyin papula hajmini mm da o'lchash orqali baholandi. Diametri 15 – 16 mm dan ortiq bo'lgan papulalar ijobiy deb hisoblangan.

Mediofarm-EKU klinikasida maxsus tadqiqot usullari o'tkazildi:

Gisterosalpingografiya (GSG) Titan (Koreya) rentgen apparatida o'tkazilgan. Tadqiqot hayz davrining birinchi bosqichida – hayz ko'rishning 7-12 kunlarida o'tkazildi. Tadqiqot uchun suvda eriydigan kontrast moddalar (Triombrast, Urografin, Omnipak) ishlatilgan.

Konveks abdominal transdyuserlari (3,5 MGts) va transvaginal transdyuserlar (5-7,5 MGts) bilan Mindray DSN 3 (Xitoy) apparatida tos a'zolarining ultratovush tekshiruvini o'tkazildi.

Gisteroskopik diagnostika amaliyotlari «Karl Storz» (Germaniya) ofis gisteroskopi yordamida amalga oshirildi. Tashqi diametri 4,5 mm bo'lgan Gisteroskop 5 shr instrumental kanali bilan ishlatilgan. Gistologik tekshiruv uchun endometriydan namunalari hayz davrining 6-kunidan 22-kunigacha endometriumning bir nechta joylaridan olingan.

Endometriumning gistologik tadqiqotlari standart usullarga muvofiq amalga oshirildi: formalin fiksatsiyasi, spirtli alanga, 6-8 mikron qalinlikdagi bo'laklarni tayyorlash va gematoksilin-eozin bilan bo'yash.

Qon zardobidagi FSG, LG, prolaktin, Tireotrop gormon, erkin tiroksin, estradiol, erkin testosteron va progesteron konsentratsiyasini o'lchash Roche Diagnostics Cobast 601 immunokimyoviy moduli bilan jihozlangan analizator yordamida Cobas 6000 (Shveytsariya) modulli platformasida ferment immunokimyoviy usuli bilan amalga oshirildi. Gormonal tadqiqotlar uchun qon namunalari olish ertalab och qoringa, hayz davrining bosqichini hisobga olgan holda (hayz davrining 2-3-kunidan 7-9-kunigacha) amalga oshirildi.

Etiotrop va «maqsadli» terapiyadan foydalanishning uslubiy yondashuvlari quyidagilarga asoslangan:

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining «O'zbekiston Respublikasida silga qarshi tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida» gi 2014-yil 24-oktabrdagi 383-son va «Kattalarda nafas olish organlari silini boshqarish va davolash bo'yicha milliy klinik protokol» ning 11-ilovasiga 14.02.2020-yildagi 11-ilova asosida maxsus terapiya silga qarshi dorilarga Xpert MTB/Rif, HAIN-test va MGIT natjalariga asoslangan xolda olib borildi.

Barcha bemorlar, steroid gormonlarining nomutanosibligini hisobga olgan holda, silga qarshi asosiy davolanishga hayz davrining birinchi bosqichida tabiiy estrogenlarning transdermal shakllari (17-β estradiol valerat) va hayz davrining ikkinchi bosqichida mikronizatsiyalangan progesteronlar (intravaginal) qo'shildi. Preparatlar hayz davrining tiklanish tezligiga qarab, 3 oydan 6 oygacha bo'lgan davriy ravishda buyurilgan. Tireotrop dorilarni kiritish hayz davrining fazasidan qat'iy nazar, TTG va At-TPO nazorati ostida amalga oshirildi.

EKU dasturlariga tayyorgarlik gonadotropin gormonlarini agonistlari bilan stimulyatsiya protokoli bo'yicha amalga oshirildi. Tayyor yoki muzlatib eritilgan embrionlarni ko'chirish dasturlari tabiiy xayz tsiklida, modifitsirlangan terapiyasi protokollari yordamida amalga oshirildi.

Olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash Pentium-IV kompyuterida Excel paketida ishlab chiqilgan statistik funktsiyalar kutubxonasiga ega dastur yordamida amalga oshirildi. O'rtacha qiymatlardagi farqlar $p < 0,05$ ahamiyatlilik darajasida

ishonchli deb hisoblangan. Tadqiqotda mantiqiy regressiya usuli va regressiya koeffitsientini standartlashtirilgan baholash ishlatilgan. Ayrim prediktorlarning nisbiy hissasi χ^2 Vald (Wald Chi-Square) va regressiya koeffitsientini standartlashtirilgan baholash shaklida ifodalangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **"EKU natijalari bir necha bor muvaffaqiyatsiz bo'lgan ayollarda genital sil kasalligini erta tashxislash"** bepushtlikni bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi sabab bo'lgan ayollarda genital sil kasalligini aniqlashda diagnostik yondashuvlarning ahamiyati va uning ECU samaradorligiga ta'siri baholanadi.

Bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi sabab bo'lgan bepushtlik holatlarining, sil infeksiyasining bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi ekanligini hisobga olib, biz 309 ECU protokolini retrospektiv tahlil qilish natijalariga ko'ra, bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi sabab bo'lgan, genital sil kasalligini aniqlash uchun bakteriologik tekshiruv spektrini o'tkazgan ikki yoki undan ortiq muvaffaqiyatsiz ECU natijalari bo'lgan 120 ayolni tanladik.

O'tkazilgan tekshiruv natijasida sil kasalligini bakteriologik tasdiqlashning «ijobiy» holatlarining chastotasi genital traktidan chiqarilgan bakterioskopiya 8,3% ni tashkil etishi va GeneXpert va PZR molekulyar genetik testlarida mos ravishda 23,3% va 20,8% ni tashkil etishi aniqlandi (jadval. 1).

Jadval 1

Takroriy muvaffaqiyatsiz ECU natijalari bo'lgan ayollarda biologik ajralmalarda M. tuberculosisni aniqlash chastotasi

Genital traktidan ajralishni o'rganish turi	Tadqiqot natijalari, n=120											
	Ijobiy		Salbiy		Haqiqiy +		Haqiqiy -		Yolg'on +		Yolg'on -	
	a б c	%	a б c	%	a б c	%	a б c	%	a б c	%	a б c	%
Bakterioskopiya	10	8,3	110	91,7	10	8,3	88	73,3	0	0,0	22	18,3
GeneXpert	28	23,3	92	76,7	28	23,3	88	73,3	0	0,0	4	3,3
Polimeraza zanjiri reaksiyasi	25	20,8	95	79,2	19	15,8	88	73,3	6	5,0	7	5,8

Taqdim etilgan 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, GeneXpert va genital traktidan chiqarilgan PZR molekulyar genetik testlarining yuqori diagnostik sezgirligi va diagnostik o'ziga xosligi, takroriy muvaffaqiyatsiz ECU natijalari bo'lgan ayollarda genital sil kasalligini tashxislashda ushbu tadqiqot turlarining yuqori diagnostik qiymatini aniqlaydi. Mos ravishda 96,7% va 89,2%. Sil mikobakteriyalarining past aniqlanishi va bakterioskopiyaning diagnostik sezgirligi (31,2%), ehtimol mikroorganizmning epizodik chiqishi va oligobakteriyalligi bilan bog'liq bo'lib, bu sil jarayonining o'pkadan tashqari lokalizatsiyasida o'ziga xosligidir.

Genital traktidan ajratilgan ajralmalarning bakteriologik tadqiqotlarining sezgirligi, o'ziga xosligi va diagnostik ahamiyati


Genital traktidan ajralishni o'rganish turi	Diagnostika		
	sezuvchanlik	o'ziga xoslik	qiymat
Bakterioskopiya	31,2%	100%	81,7%
GeneXpert	87,5%	100%	96,7%
Polimeraza zanjiri reaksiyasi	73,1%	93,6%	89,2%

Ikki yoki undan ortiq muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi bilan bog'liq bepushtlik omilli ayollarda immunodiagnostika 14,2% (120 ayoldan 17 tasi) Diaskin testining «ijobiy» natijasini aniqladi. Diaskin testining diagnostik sezgirligi, diagnostik o'ziga xosligi va diagnostik qiymati anamnezida ikki yoki undan ortiq muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan bachadon naylarining o'tkazuvchanligini buzilishi bepushtligi omilli ayollarda mos ravishda 16,7%, 86,3% va 75,8% ni tashkil qiladi.

Takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan ayollarni har tomonlama tekshirish natijasida genital sil kasalligi 26,7% hollarda isbotlangan (120 tadan 32 tasi).

Genital sil kasalligi va takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bo'lgan ayollarning reproduktiv va tug'ish holatining klinik-fenotipik xususiyatlarini baholash muhim diagnostik ahamiyatga ega bo'lgan klinik o'zgarishlarning o'ziga xosligini, gormonal profilni buzilishlarining og'irligini va endometriyal tuzilmalardagi morfologik o'zgarishlarning chuqurligini aniqladi.

1-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqot guruhlaridagi ayollarning katta qismi: asosiy guruh (takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari va genital sil kasalligi bo'lgan 32 ayol) va taqqoslash guruhi (88 ayol, shuningdek, takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari bilan, genital sil kasalligi bo'lmagan) faol reproduktiv yoshda edi. Ma'lumki, ayollarning reproduktiv funksiyasi 30 yoshdan keyin asta-sekin pasayishni boshlaydi, tuxum miqdori va sifatining sezilarli pasayishi 35 yoshdan keyin sodir bo'ladi. O'rtacha yosh ishtirokchilari (33,4 va 30,5 yosh) va miqdoriy tahlil (35 yoshdan oshgan ayollar soni – asosiy guruh – 25%, taqqoslash guruhi – 20,5%, $p>0,05$) asosiy guruh ayollari orasida katta yosh farqlari tendentsiyasini ko'rsatdi, ammo bu ma'lumotlar unchalik ishonchli emas edi.



Rasm:1. Tekshirilgan ayollarning yosh tarkibi

Omillarning «ahamiyatligini» aniqlash va juda muhim klinik, biologik, funktsional va morfologik belgilarni ajratish naylarga bog'liq bepustlik omili bo'lgan ayollarda sil infeksiyasining oqibatlari EKU samaradorligini bashorat qilish uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tekshirilgan bemorlar kogortasining klinik ko'rinishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, takroriy EKU natijalari va genital sil kasalligi bo'lgan ayollarda aniqlangan asosiy shikoyatlar tarixi va taqqoslash guruhleri: 6 oydan ortiq surunkali tos soxasidagi og'riqlari (mos ravishda 71,9% va 36,4%, $p<0,05$), dismenoreya (mos ravishda 43,8% va 18,2%, $p<0,05$) va umumiy intoksikatsiya belgilari (mos ravishda 18,8% va 1,1%, $p<0,001$).

Tos a'zolarining yallig'lanish kasalliklarining kuchayishi (yiliga uch yoki undan ko'p marta) bemorlarning 43,8%da sodir bo'lgan va statistik jihatdan guruhlar o'rtasida farq qilmagan. Jinsiy a'zolar sili kasalligi bilan og'rigan 28 (87,5%) bemorda g'ayritabiiy menorragiya kuzatilgan, taqqoslash guruhidagi hayz davrining buzilishi esa 80 (90,9%) bemorda qayd etilgan. Oligomenoreya turidagi hayz davrining buzilishi genital sil bilan og'rigan bemorlarning 12,5% foiziga xos bo'lgan, taqqoslash guruhidagi 5,7%ga nisbatan, ammo farq statistik jihatdan ahamiyatli emas edi ($p>0,05$). Gipomenstral sindrom tadqiqot guruhidagi ayollarning mos ravishda 9,4% va 9,1% da qayd etilgan.

Menarxening o'rtacha yoshi $13,5\pm 1,4$ yoshni tashkil etdi. Menarxening kech kelishi (15 yosh va undan katta) asosiy guruhdagi 5 (15,6%) va taqqoslash guruhidagi 13 (14,8%) da kuzatilgan, farq statistik jihatdan ahamiyatli emas edi.

Genital sil kasalligi xavfini baholash bilan naylarga bog'liq bepustlik omili bo'lgan ayollarda klinik ko'rinishlarning tafsilotlari 3-jadvalda keltirilgan.

Jadval 3

Muvaffaqiyatsiz IVF tarixi bo'lgan ayollar tomonidan shikoyatlarning chastotasi, turli xil kelib chiqishi

Alomatlar va shikoyatlar	Genital sil kasalligida simptomning chastotasi, n=32		Jinsiy sil kasalligi bo'lmaganlarda simptomning chastotasi, n=88		Ma'lumotlarning ishonchliligi, P	KP
	n	%	n	%		
Qorinning pastki qismida og'riq mavjudligi	14	43,8±6,1	34	38,6±4,3	>0,05	1,13
TAYaK surunkali kechishi	13	40,6±5,8	30	34,1±4,2	>0,05	1,21
Ikkilamchi amenoreya	4	12,5±3,6	3	3,4±2,1	<0,05	4,33
Algomenoreya	14	43,8±6,1	16	18,2±3,6	<0,05	2,44
Dispareuniya	7	21,9±6,5	8	9,1±2,3	<0,01	2,44
Subfebril tana harorati	8	25,0±7,7	3	3,4±2,1	<0,001	8,33
Patologik zaiflik, charchoq, terlash	19	59,4±8,7	17	19,3±3,6	<0,01	3,11
Tana vaznining pasayishi	13	40,6±5,8	18	20,5±3,1	<0,05	1,95
Shishganlik	7	21,9±6,5	11	12,5±2,9	>0,05	1,6
Regional limfa tugunlarining kattalashishi	6	18,8±3,9	6	6,8±2,0	<0,05	2,11

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, naylarga bog'liq bepustlik omiliga ega bo'lgan ayollarda sil kasalligi infeksiyasining kelib chiqishi xavfi prognozi

mavjud: past darajadagi isitma (8,33 marta), ikkilamchi amenoreya (4,33 marta), patologik zaiflik, charchoq, terlash (3,11 marta), algomenoreya (2,44 marta), disparuniya (2,44 marta), regional limfa tugunlarining kattalashishi (2,11 marta) va tana vaznining pasayishi (1,95 marta), bu genital sil kasalligining "katta belgilari" bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bepushtlik xususiyatini baholashda asosiy guruhda birlamchi bepushtlik ($p<0,05$) ustunlik qilganligi, shuningdek, anamnestik jihatdan bepushtlik 5 yildan ortiq davom etganligi ($p<0,001$) qayd etilgan (jadval 4).

Jadval 4

Muvaffaqiyatsiz EKU bo'lgan ayollar orasida bepushtlikning chastotasi va tabiati

Bepushtlik turi	Genital sil kasalligida simptomning chastotasi, n=32		Jinsiy sil kasalligi bo'lmaganlarda simptomning chastotasi, n=88		Ma'lumotlarning ishonchliligi, P
	n	%	n	%	
Birlamchi bepushtlik	19	59,4±8,7	36	40,9±5,2	<0,05
Ikkilamchi bepushtlik	13	40,6±8,7	52	59,1±5,2	>0,05
5 yildan ortiq bepushtlik	24	75,0±7,6	27	30,7±4,9	<0,001

Kuzatilgan bepushtlik davomiyligi asosiy guruhda 5,9±0,51 yil va taqqoslash guruhida 2,6±0,12 yilni tashkil etdi ($\chi^2=15,130$, $p=0,002$). Besh yildan ortiq vaqt davomida bepushtlik bilan og'rigan ayollarning asosiy guruhdagi ulushi 75,0% ni tashkil etdi, taqqoslash guruhida esa 2,4 baravar kam.

Ultratovush tekshiruvi natijalari (UTT), takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijalari va genital sil kasalligi bo'lgan ayollar guruhida miyometriyada va/yoki tuxumdonlarda kalsifikatsiya joylari (62,5%, $p<0,001$), yallig'lanish jarayonlari belgilari (81,3%, $p<0,01$) va endometriyal gipoplaziya (21,9%, $p<0,01$) ustunlik qildi.) (1-rasm). Genital sil kasalligini kompleks tashxislashda ultratovush tekshiruvining informatsion tarkibi 78,1% ni tashkil etdi.



Endometriumdagi kalsifikatsiya joylari



Tuxumdonlardagi kalsifikatsiya joylari

Surat 1. Takroriy samarasiz EKU natijalari bo'lgan ayollarda genital sil kasalligi uchun tos a'zolarining ultratovush tekshiruvi

Jinsiy a'zolar sili bilan bog'liq bepusht bemorlar guruhida gisterosalpingogramma (GSG) natijalarini baholashda o'ziga xos alomatlar tez-tez aniqlandi, masalan: «tasbeh» alomati, naylarning qattiqligi, 71,9% da «tuguncha» alomati ($p<0,001$), bachadon hajmining kichrayishi (T-simon shaklidagi bachadon)

28,1%, ($p < 0,001$) (2-rasm; jadval 5). GS kompleks diagnostikasida GSG ma'lumoti tarkibi 87,5% ni tashkil etdi.

Jadval 5

Anamnezida takroriy muvaffaqiyatsiz EKU natijasi bo'lgan ayollarda gisterosalpinografiyaning o'ziga xos belgilari, kelib chiqishi

Natijalar	Genital sil bo'lgan ayollarda chastotasi, n=32		Genital sil bo'lmagan ayollarda chastotasi, n=88		Ma'lumot larning ishonchligi
	n	%	n	%	
Qorin bo'shlig'idagi kalsifikatsiyalar	16	50,0±8,8	0,0	0,0±0,0	p <0,001
Fallop naychalarining shikastlanishi (o'ziga xos belgilar)	23	71,9±7,9	0,0	0,0±0,0	p <0,001
Sinexiya / bachadon hajmining kichrayishi	9	28,1±7,9	1	1,1±1,1	p <0,001
Naylarning bir tomonlama o'tkazuvchanligi	1	3,2±4,7	6	6,8±5,2	p <0,05



Naylarning qattiqligi, «tuguncha» alomati




Tuxumdon proeksiyasida kalsifikatsiya joylari


Surat 2. Anamnezida takroriy samarasiz EKU natijalari bo'lgan ayollarda genital sil kasalligining gisterosalpinografik ko'rinishlari

Bachadon bo'shlig'ini gisteroskopik tekshirish natijalari 6-jadvalda keltirilgan bo'lib, unda endometriumning normal ko'rinishi genital sil bilan kasallangan bepusht bemorlarning 12,5% da sodir bo'lganligi qayd etilgan, taqqoslash guruhida esa bu ko'rsatkich 5,8 baravar yuqori bo'lgan ($p < 0,001$). Genital sil bilan bog'liq bepusht bemorlar guruhidagi endometrial patologiyalari orasida surunkali endometrit (21,9%) eng tez-tez va yuqori ishonch bilan tashxis qo'yilgan; turli darajadagi endometriyal giperplaziya (18,8%), yupqa endometrium (15,6%), endometriyal poliplar (9,4%), I darajali adenomiyoz (6,3%) va submukoz bachadon miomasi II FIGO bo'yicha turi (3-rasm).

Takroriy muvaffaqiyatsiz IVF natijalari bo'lgan ayollarda gisteroskopiya paytida genital silning o'ziga xos va xarakterli ko'rinishlari 3,1% hollarda bachadon sinexiyasining mavjudligi (4-rasm), 3,1% hollarda bachadon bo'shlig'i hajmining kichrayishi ko'rinishidagi bachadon bo'shlig'ining deformatsiyasi va bachadon bo'shlig'ining to'liq bo'lmagan to'sig'idir (3,1%).



Surat 3. Gisteroskopiya: yupqa endometrium



Surat 4. Gisteroskopiya: bachadon sinexiyasi

Jadval 6

Qiyosiy jihatdan anamnezida takroriy samarasiz EKU natijasi bo'lgan ayollarda genital sil kasalligining patologik gisteroskopik ko'rinishlari

Anamnezida takroriy samarasiz EKU natijalari bo'lgan ayollarda genital silning gisteroskopik ko'rinishlari	Genital sil kasalligida paydo bo'lish chastotasi, n=32		Genital sil bo'lmaganlarda paydo bo'lish chastotasi, n=88		Ma'lumot larning ishonchligi, P	KP
	n	%	n	%		
Gisteroskopik normal xolat	4	12,5±5,6	64	72,7±4,6	<0,001	0,17
Surunkali endometrit	7	21,9±4,2	8	9,1±3,4	<0,001	2,44
Endometriyal poliplar	3	9,4±3,8	3	3,4±2,5	<0,05	3,0
Turli darajadagi endometriyal giperplaziya	6	18,8±4,1	5	5,7±2,8	<0,01	3,17
Yupqa endometrium	5	15,6±4,0	6	6,8±3,1	<0,05	2,28
I darajali adenomiyoz	2	6,3±2,9	1	1,1±2,2	<0,001	6,0
Bachadon sinexiyasi	1	3,1±2,5	0	0,0±0,0	<0,01	
Bachadon bo'shlig'ining hajmini kamaytirish	1	3,1±2,5	0	0,0±0,0	<0,01	
To'liq bo'lmagan to'siq	1	3,1±2,5	0	0,0±0,0	<0,01	
Submukoz bachadon miomasi II FIGO turi	2	6,3±2,9	1	1,1±2,2	<0,001	6,0


Gisteroskopik tekshiruv ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, naylarga bog'liq bepushtlik omiliga ega bo'lgan ayollarda sil kasalligi infeksiyasining genezisi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf prognozi mavjud: bachadon sinexiyasi, bachadon hajmining kichrayishi, to'liq bo'lmagan to'siq, I darajali adenomiyoz (6,0 marta), bachadon miomasi II turi FIGO (6,0 marta), "katta" genital tuberkulyozning gisteroskopik belgilari va turli darajadagi endometriyal giperplaziya (3,17 marta), endometriyal poliplar (3,0 marta), surunkali endometrit (2,44 marta) va yupqa endometrium (2,18 marta), genital silning "kichik" gisteroskopik belgilari bilan belgilanadi.

Endometriumda sil xos yallig'lanishining xarakterli morfologik belgilari deyarli aniqlanmaydi, chunki endometrium har oyda deskvamatsiya-ko'chib tushadi. Shuning uchun odatdagi gistopatologik belgilarning yo'qligi tegishli klinik sharoitlarda sil kasalligi ehtimolini istisno etmaydi. Gistologik tadqiqotlar


